

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14706974>

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA UCHRAYDIGAN NUTQIY NUQSONLARNI BARTARAF ETISH USULLAR

Xolmurodova Yoqinoy Zokir qizi
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida uchraydigan nutq nuqsonlarini aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llari haqida ma‘lumotlar mavjud. Hamda o‘quvchilarning nutq a‘zolaridagi turli kamchiliklar ko‘rib chiqilgan. Nutq kamchiliklarini bartaraf etish uchun turli "nutq mashqlar" i o‘rganilgan. Dars jarayonlarida turli tasvirlar, matnlar, topishmoq va tez aytishlar yordamida o‘quvchilarni mulohaza yuritishga va nutqini tez va to‘g‘ri chiqarishga qaratilgan nutq o‘yinlari o‘z aksini topgan.*

Kalit so‘zlar: *nutq , nutq a‘zolari, ta‘lim-tarbiya , metodika , individual.*

Аннотация: В этой статье рассказывается о том, как выявить и устранить дефекты речи, с которыми сталкиваются учащиеся начальных классов. Также были рассмотрены различные недостатки в речах учеников. Чтобы устранить недостатки речи, изучались различные «упражнения». В ходе занятий были отражены результаты исследований, направленных на размышление и правильное произношение с помощью различных изображений, текстов, находок и фраз.

Ключевые слова: *речь, темы речи, образование-воспитание, методика, индивидуальный.*

Abstract: *This article discusses how to identify and address speech defects experienced by elementary students. Various shortcomings in the pupils' speeches were also addressed. To eliminate speech deficiencies, various "exercises" were studied. During the classes, the results of research aimed at reflection and correct pronunciation using various images, texts, finds and phrases were reflected.*

Key words: *speech, topics of speech, education-upbringing, methodology, individual.*

KIRISH:

Har bir shaxs komil inson bo‘lib yetishishi jarayonida nutq jarayoni muhim o‘rin kasb etadi[1,2,3,4]. Uning rivojlanishi turli insonlarda turlicha davr mobaynida davom etadi[5,6,7,8]. Nutq kamchiligi o‘z-o‘zidan barham topmaydi, balki vaqt o‘tgan sari yanada mustahkamlanib, zo‘rayib boradi[9,10,11,12,13]. Bu kamchiliklarni ota onalar o‘z vaqtida aniqlab buni bartaraf etish uchun mutaxasislardan maslahat olishlari zarur[14,15,16,17]. Ammo afsuski bugungi kunda bunday muammolarga befarqlik bilan qaraydigan va o‘z vaqtida chora ko‘rmay bolalarni qiy nab qo‘yadigan ota-onalar ham topilib turibdi[18,19,20]. Bu jarayonda pedagog xodimlarning ham o‘ziga yarasha ma‘suliyati mavjudligini unutmasligimiz lozim. Bugungi maqolada aynan mana shunday bolalarning nutqida va talaffuzida uchraydigan nuqsonlarni birma- bir kelib chiqish sabablarini ko‘rib chiqamiz.

“Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuning II-bobi 9-moddasida jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘gan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalarida, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta‘lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta‘lim oladi.

ADABIYOTLAR TAHLIL VA METODOLOGIYA

Bugungi kunimizda tez-tez uchrab turadigan nutq nuqsonlari mavjud bolalarni ko‘rish biz uchun odatiy holga aylanib ulgurdi. Bunday nuqsonlarni ko‘pchilik ota-onalar odatiy hol sifatida qarashi juda achinarlidir. Chunki o‘z vaqtida aniqlangan nuqsonga e’tiborsizlik vaqt o‘tgan sari yanayam kuchayib bolaning individual rivojlanishiga katta to‘siq bo‘lishi hech gap emas. Shuning uchun biz birinchi navbatda bolalarda bu nuqsonlar qanday kelib chiqish sabablarini o‘rganishimiz zarur.

Bolalarda uchraydigan nuqsonlarning kelib chiqish sababi nima?

Bolalardagi nutqiy nuqsonlarning asosiy sabablari:

1. Embrion rivojlanish davridagi turli xil patologiyalar;
2. Xomiladorlik vaqtidagi toksikozlar, virusli va endokrin kasalliklar, jaroxatlar, qonning rezus-faktorga mos kelmasligi;
3. Tug‘ruq vaqtidagi shikastlanish va asfiksiya;
4. Bola rivojlanishining birinchi yilidagi bosh miya kasalliklari (meningit, ensofalit).
5. Miyaning chayqalishi bilan birga sodir bo‘ldigan bosh miya jarohatlari.
6. Nasliy faktorlar.
7. Sotsial-maishiy sharoitning yomonligi.

Bu holat pedagogik qarovsizlikka, vegetativ disfunksiyaga, emosionalirodaviy muhitning buzilishlariga va nutqning rivojlanmay qolishiga sabab bo‘lladi. Nutq nuqsonlarini bartaraf etishda bir qancha usullardan foydalanish mumkin. Aynan mana shunday bemor bolalar bilan shug‘ullanuvchi insonlar logopedlar hisoblanishadi.

Logopediya (logos va yunoncha. Paideia – tarbiyalash, o‘qitish) – pedagogika fani tarmog‘i; nutqdagi kamchiliklar (duduqlanish, til rivojlanmaganligi, o‘qish va yozuvdagi nuqson va boshqalar) sabablari, ularning oldini olish, tuzatish yo‘llarini hamda nutq faoliyati buzilishi mexanizmlari, alomatlarini maxsus ta‘lim va tarbiya

vositasida o‘rganadi. Logoped olib boradigan pedagogik tuzatish ishning asosiy vazifasi bolalar nutqidagi nuqsonlar va ruhiy noto‘kis jihatlarini bartaraf etish. Logoped o‘z uslubi va vositalarini nutq nuqsoni bor bolalarga ta’sir etishda qo’llay biladigan zarur mutaxassislearning ham tibbiy-pedagogik ishni tashkil etadi. Bu mashg’ulotlarda nutq nuqsonlari bor bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarda to‘g’ri nutq riivojlantirish, artikulatsiyani, mayda qo‘l motorikasini rivojlantirish va o‘yinlardan foydalanish kattä ahamiyatga ega. Mayda qo‘l motorikasini rivojlantirishda o‘yinlarning o‘rni juda katta hisoblanadi.

“Dislaliya nutq buzilishining keng tarqalgan turi bo‘lib, bu holatda kichik yoshli o‘g‘il-qizlar ayrim tovushlarni to‘g’ri talaffuz qila olmaydi. Yoki bir tovushni ikkinchisiga almashtirib, ba’zi paytda uni o‘tkazib yuboradi”, — deydi stomatolog-shifokor Mirafzal Irxanov.

Asosan 3-4 yoshli kichkintoylarda uchraydigan bu kabi nutq buzilishida bola o‘z istaklarini to‘liq va aniq bayon eta olsa-da, ba’zi so‘zlarni noto‘g‘ri talaffuz qiladi. Masalan “mashina” so‘zini “matina”, “shirinlik” so‘zini esa “tirinlik” deb aytishi mumkin.

Dislaliyaning 2 xil – funksional va mexanik turlari bor. Mexanik turiga asosan bola og‘zidagi nutq apparatida (tishlar joylashuvi, jag‘lar shakli) kamchiliklar, tanglayning tartibsiz tuzilishi, qalin lablar sabab bo‘ladi. Funksional dislaliyanı esa bolaning o‘tkir kasalliklarni boshdan kechirganligi, oilada ikki tilda so‘zlashish, farzand nutqini noto‘g‘ri tarbiyalash, u bilan kam suhbatlashish, kichkintoy bilan gaplashganda so‘zlarni “bolalarcha” talaffuz qilish va unda fonemik eshitishning yaxshi rivojlanmaganligi kabi omillar keltirib chiqaradi.

Mexanik dislaliya tashxisi qo‘yilgan bolani ortodont va logoped mutaxassislar birgalikda davolashi lozim. Buning uchun kichkintoyga og‘iz orqali bajariladigan maxsus mashg‘ulotlar tavsiya etiladi. Ayrim vaqtarda esa shifokor ko‘rsatmasi bilan jarrohlik amaliyoti qo‘llaniladi.

Funksional dislaliya 5 yoshgacha davolanmaydi. Agar bola shu davrga qadar ba’zi so‘zlarni noto‘g‘ri talaffuz qilayotgan bo‘lsa, u bilan to‘g‘ri va ravon so‘zlashish orqali muammoni bartaraf etish mumkin. Bunda kichkintoyga she’r yodlatish, qo‘sishlar eshittirish yaxshi foyda beradi. Biroq bola 5 yoshga to‘lgach ham “quyosh” so‘zini “quyos” deyayotgan bo‘lsa, uni, albatta, shifokorga ko‘rsatish zarur. Mazkur holatda logoped jajji bemorga og‘iz mashg‘ulotlarini o‘rgatish va talaffuz qila olmayotgan tovushlarni to‘g‘ri aytishga ko‘maklashadi. Ya’ni maxsus logopedik yo‘llar bilan bu tovushlarni kichkintoy nutqida mustahkamlaydi. Shuningdek, bola nutqini rivojlantirishda og‘iz mushaklarini kuchaytirish yaxshi samara beradi. Buning uchun kichkintoyga sabzi, olma, qotgan non yoki turshak kabi yeguliklardan berib turilsa, foydadan xoli bo‘lmaydi. Nutq buzilishi bo‘lgan maktab o‘quvchilarida yozma nutqning

(o'qish va yozish) buzilishi juda keng tarqalgan hodisa. Bu bolalarning og'zaki nutqi buzilishi bilan bog'liq bolib ,nutqnig fonemik, morfologik va sintaktik jihatdan shakllanmaganligi sabab bo'ladi. To'liq nutq aloqasi tajribasiga ega bo'limgan nutq buzilishi bo'lgan bolalar ayrim sabablarga ko'ra mакtabgacha yoshda turli darajadagi til materialini (tovush tarkibi, lug'at, grammatic tuzilish) tahlil qilish va sintez qilish bo'yicha savodxonlikni egallash uchun zarur bo'lgan mashg'ulotlarda qatnashmagan bo'lib chiqadi.

NATIJALAR

Nutq buzilishining og'irligiga qarab, mакtab yoshidagi bolalar turli xil nutq terapiyasi yordamini oladilar. Yengil, qisman buzilishlar sinfda logoped xonasida bartaraf etiladi, uning tizimi keng rivojlangan va tegishli uslubiy materiallar bilan jihozlangan bo'ladi. Nutq terapiyasi darslari mакtab ta'limi bilan parallel ravishda o'tkaziladi, unga qo'shimcha ravishda, lekin hech qanday holatda sinf o'qituvchisining ishini takrorlamaydi. Umumta'lim mакtabidagi logopedning vazifalari o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqidagi buzilishlarni tuzatish, o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasida nutq kamchiliklarining kelib chiqish sabablari va profilaktikasi, tuzatish va nutq terapiyasi bilimlarini targ'ib qilish, buzilishlarni o'z vaqtida aniqlash va bolaning nutq rivojlanishidagi mumkin bo'lgan ikkinchi darajali buzilishlarning oldini olishdan iborat.

Logopedik mashg'ulotlarda nutq kamchiliklarini bartaraf etish, korreksiyalash, lug'at boyligini to'ldirish bilan birga, bolaning o'ziga va o'z nutqiga bo'lgan ishonchi mustahkamlanib ,o'z fikrini,hisiyotlarini turli xil nutqiy vaziyatlarda bema'lif ifoda eta olish ko'nikmalari shakllantirib boriladi. Bu bilan bolaning ruhiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatiladi. Doimiy muvaffaqiyatsizlik holati natijasida bir qator o'quvchilar o'qishga salbiy munosabatda bo'lismadi, shuning uchun tuzatish darslarida bolalarning kognitiv faolligini rivojlantirishni rag'batlantirish, grammaticani o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan aqliy mehnat usullarini shakllantirishga qaratilgan ishlar olib boriladi.

O`yin-mакtabgacha ta`lim yoshidagi bolaning asosiy faoliyatidir. Shunday ekan bola uchun tavsiya etiladigan har qanday o`yin ma'lum bir maqsadga qaratilgan bo`lishi lozim. Bola o`yin davomida o`zi bilmagan holda bir qancha bilim, ko`nikma va malakalarni egallab boradi. Masalan, o`yin jarayonida bir qancha matematik amallarni bajaradi, masalarlarni yechadilar, qo'shadi, ayiradi, ko`paytiradi, bo'ladi, masofani aniqlaydi, mo'ljal oladi, tomonlarni aniqlaydi, har xil jismoniy harakatlarni, mashqlarni bajaradi, yuguradi, o'tiradi, turadi, umumjismoniy mashqlarning bir necha turini bajaradi. Bundan tashqari nutqni rivojlantiruvchi va lug'atini boyituvchi mashg`ulotlarni bajaradilar. Ayniqsa o`yining bolaning har tomonlama psixik hamda jismoniy rivojlanishida ahamiyati juda kattadir.

Nutq nuqsonlarini bartaraf etish uchun ko`proq to‘g`ri nafas olishga o`rgatadigan, artikulaytsion aparatni ishini mustahkamlaydigan, ya`ni bolalarni nutq tovushlarini aniq va ravon talaffuz etish malakasini oshiradigan mashqlarlar tavsiya etiladi hamda shunday mashg`ulotlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

"Kapalakcha uchyabdi" o‘yini

O‘yinning maqsadi: To‘g`ri va uzlusiz havo oqimini hosil qilishga erishish va bolaning to‘g`ri nafas olishga o`rgatish.

O‘yinnning borishi: Bolalar stulchalarga o‘tirishadi. Logoped ularga:

- Bolalar qaranglara qanday chiroyli kapalak: ko‘k, qizil, sariq. Ular xuddi jonli kaplakka o‘xshaydi. Ko‘raylikchi ular ucha oladilarmi?

Logoped kapalakni puflaydi.

- Qaranglar ular uchib ketishdi. Qani sizlar ham puflab koringchi. Kimning kapalagi uzoqqa uchar ekan?

Logoped har bir kapalakning qarshisiga bittadan bolani o‘tqizadi. Bolalar kapalakka qarab puflaydilar.

Barmoqlarning nozik harakatlarini rivojlantiruvchi mashqlar:

- bolani o‘n oyligidan boshlab barcha barmoqlarini harakatga jalgan qilish kerak – kub, piramidalar, turli hajmdagi yarimsharni bir biriga taxlash, joylashtirish.
- bir yoshdan bir yarim yoshgacha bo‘lgan davrda yog‘ochdan yoki plastmassadan bo‘lgan o‘yinchoqlar, masalan, legolardan piramida, uychalar yasash;
- bir yarim yoshdan ikki yoshgacha bo‘lgan davrda mozaykalardan har turdagи shakllarni yig‘ish;
- ikki yoshdan uch yoshgacha bo‘lgan davrda o‘yinchoqlarni, yirik tugmachalarni teshiklardan arqon o‘tkazib bir safga terish, arqonlardan har xil shakldagi bog‘ichlar yasash;
- artikulyatsiya mashqlari: sharlarni uflab shishirish, so‘zlarni dona-dona talaffuz qilishga intilish.

Barmoqlar bilan turli xil mashqlarni bajarib, bolalar barmoqlarini nozik harakatlarini yaxshi rivojlanishiga erishiladi, bu nafaqat nutqning rivojlanishiga foydali ta’sir ko‘rsatadi, balki bolani chizishga, yozishga ham tayyorlaydi.

MUHOKAMA

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirishda eng asosiy namuna obekti bu o‘qituvchidir. O‘qituvchining nutqi bolalar tomonidan xar tomonlama o‘zlashtiriladi. Shuning uchun o‘qituvchi nutq qoidalariga va chiroyli gapirish madaniyatiga ega bo‘lishi, o‘z nutqida madaniyatning nutqiy shaklini nomoyon eta olishi zarur. O‘qituvchi shaxsininng nutqiy malakasi bilan birga bolalarning nutq malakasini va madaniyatini shakllantirish malakasi xam bo‘lishi zarur. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirish asosida quyidagi tavsiyalarga amal qilish maqsadga muvofiq:

-so‘zlashuv jarayonida so‘zni to‘gri qo‘llashni tashkil etish;
-adbiy tilda suxbat qurishni yo‘lga qo‘yish;
-so‘zlarning sinonimlaridan foydalanishni tashkil etish;
-ko‘ch so‘zlaridan foydalanmaslikni targ‘ib qilish;
-kitob o‘qishni targ‘ib etish.

Yuqoridagi bu tavsiyalar boshlang‘ich sinf o‘quvchisining nafaqat nutq madaniyatini balki psixikasi va xulqiga ham ijobiyligi ta’sir ko‘rsatadi.


Boshlangich sinf o‘quvchilarining nutq texnikasini shakllantirish jarayoni ham uning psixik xolati bilan aloqador jarayondir. Bu yoshdagagi bolalarda nutqiy buzilishlar xodisasi tez-tez uchrab turadi.

Masalan:

-tez shoshib gapirish;
-noto‘g‘ri nafas olish;
-nutqda duduqlanish;
-so‘zlarni chalkashtirib yuborish.

Bu nutqiy buzilishlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida asosan ikki sabab, fiziologik va psixologik ta’sit natijasida vujudga keladi.

Boshlang‘ich sinf yoshdagagi o‘quvchilarda nutqiy buzilishlarning sabablarida biri bu uning ovoz imkoniyatlarini nomoyon etuvchi fiziologik xususiyatdir. Bolada to‘liq shakllanmagan ma‘lum bir defektga ega bo‘lgan og‘iz aparati uning ravon gapirishiga monelik qiladi. Bu xolatda o‘qituvchi maxsus mutaxasisiga murojat etish orqali bola imkoniyatlarini o‘rganadi. O‘quvchida fiziologik nuqson bo‘lgan taqdirda u doimiy nutqiy buzilishlarga sabab bo‘ladi.



Nutqiy talaffuzdagi kamchiliklarning psixologik xodisa sifatida namoyon bo‘lishi asosan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fiziologik sog‘lom bo‘lsada shoshib gapirganda, kuchli hayajon, strestga tushganda sodir bo‘ladi. Bu xolat esa o‘qituvchining mahorati asosida bartaraf etilishi zarur. O‘qituvchi bolaga vazmin, shoshmasdan gapirish zarurligini uqtirishi zarur. Nutqiy buzilishlarda xayajon, qo‘rquv, strest holatlari asosan avtoretar uslubli o‘qituvchi rahbarlik qilayotgan sinflarda ko‘zga tashlanadi. O‘qituvchining o‘ta qattiqo‘l ekanligi o‘quvchilarda qo‘rquvni vujudga keltiradi natijada, bilgan narsasini ham nutqda ifoda eta olmaydi, ko‘p kamchiliklarga yo‘l qo‘yadi. O‘qituvchi o‘quvchilarda psixik xodisa sifatida namoyon bo‘lgan nutqni anglagandan so‘ng o‘quvchi bilan ishlashda quyidagilarga amal qilishi zarur:

- bolaga xushmuomala bo‘lish;
- tortinchoq, uyatchan bolalarni ko‘proq savol - javob qilish orqali muhitga moslashtirish;
- strestga moyil bolalarga vazminlik asosida muomalada bo‘lish hamda qo‘rquvini yengishiga yordam berish;
- bolani maqtash, qo‘llab-quvatlash orqali uning psixikasiga ta‘sir ko‘rsatish;
- shoshilmasdan ifodali gapirishga mashqlantirish.

XULOSA:

Xulosa qilib aytganda nutq bu xar bir millatning o‘ziga xos bo‘lgan madaniyatini aks ettiruvchi murakkab jarayondir. Shunday ekan millatimiz ko‘zgusi bo‘lgan yosh avlodni go‘zal, jozibali, ta‘sirchan nutq egalari bo‘lishi eng dolzarb vazifadir. «Qobusnoma» muallifi Kaykovus hamma xunarlaridan so‘z xunari - notiqlikni a‘lo deb bilgan: «Bilgilni hamma xunardan so‘z xunari yaxshi» – deb bejiz ta‘riflamagan. Unutmaslik kerakki nutq bu ijtimoiy xodisadir. Demak xar bir insonning nutq madaniyati boshqa insonlar nutqini rivojlantiradi va tarbiyalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev Toshkent sh., 2020-yil 23-sentabr, O,,RQ-637-son.
2. Ayupova.M.Y. —Logopediya|| O“zbekiston faylasuflari milliy jamiyatoshriyoti Toshkent – 2007. 3. Ayupova.M.YU —Korreksion ishlar metodikasi|| Ma,,ruza matni. T-2001 4. L.I. Belyakova, YE.A. Dyakova —Logopediya Zaikaniyev xrestomatiya - Eksmo-Press||, 2001.
3. Islomova, O. (2021). Umumta’lim maktablari qoshidagi logopediya shaxobchalari ishini takomillashtirish bo‘yicha pedagogik tavsiyalar. Журнал Педагогики и

психологии в современном образовании, (2). извлечено от
<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2619>

4. Islomova O. (2020). Umumiy tipdagi mактабгача та'lim tashkilotida bolalar nutqini tuzatishda sifatli logopedik xizmat. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1).

5. Islomova O. (2022). Nutq buzilishlari psixoprofilaktikasida turli xil psixologik o'yinlarni tashkil etish. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(5). Извлечено от
<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4821>

5. Islomova O. (2022). Nutq nuqsonlarini korreksiyalashda "stem" tizimidan foydalanish. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(5). Извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4824>

6. Islomova O. (2022). Mактабгача yoshdagi nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar xotira xususiyati va uning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). Извлечено от
<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4823>

7. Z.M.Makhmudjonov. B.K.Xolyigitova, R.A.Azamatov, B.E.Chutanov. The role of management in the organization of the educational process. The way of science. 2023 №6 (112).

8. Makhmudjonov Z. Suyunova Y. (2022) Ecological characteristics of Hygromiidae family representatives. International conference on innovations in the field of education.

9. Makhmudjonov Z. Haqberdiyeva H. Suyunova Y. Ghaniyev B. (2022) Bioecological characteristics of Leucozonella corona. Research and education ISSN: 2181-3191 volume1| issue8|. <https://zenodo.org/doi/10.5281/zenodo.7358635>

10. Makhmudjonov Z, Khudoyberdiyeva S, Rahmonova Z, Haidarov I, Chutanov B, Khudoyberdiyev F. Conservation of some endemic species of the genera leucozonella and archaica and measures for their protection. Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences. Date of Publication: 22-02-2024. ISSN NO: 2771-8840

11. Makhmudjonov Z., Karshibayev J. The ecological characteristics and conservation measures of the endemic mollusk species *leucozonella corona*. scientific bulletin of NamSU. -2024/4. 189-191 P.

12. Makhmudjonov Z, Maxamadiev Z, Chutanov B, Xudoyberdiyeva S, Islomqulova R, Ismatov S, Xudoyberdiyev F, Raxmonova Z, Haydarov I, Isroilov Sh. Paedhoplita avlodi avlodi vakillarining ekologik xususiyatlari. Ilm fan muammolari magistrlar talqinida nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Qo'qon 2024. 61-64b.

13. Makhmudjonov Z., Abdurashitov S., Chutanov B. Distribution and lifestyle of *Leucoszonella mesoleuca*. (2022) EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). SJIF Impact Factor 2022: 8.197| ISI I.F. Value:1.241|
<https://doi.org/10.36713/epra2016>
14. Pazilov A, Kudratov J, Makhmudzhonov Z. New type of terrestrial mollusc of Archaica (Gastropoda, Pulmonata, Hygromiidae) from Central Asia. Int J Geogr Geol Environ 2019; 1(1):01-02. DOI: [10.22271/27067483.2019.v1.i1a.1](https://doi.org/10.22271/27067483.2019.v1.i1a.1)
15. Пазилов А., Абдулазизова Ш., Махмуджонов З. Распространение и динамика зараженности наземных моллюсков личинками гельминтов в горных зонах Узбекистана. КарГУ вестник - Карши, 2017. - №3. - С. 59-63.
16. Пазилов А. *Махмуджонов З. Умаров Ф.* Первая находка *Helix Buchi* в Центральной Азии. НамДУ Илмий ахборотномаси. -2020/2. 193-1976.
17. Пазилов А.П., Махмуджонов З.М. Биологическое разнообразие наземных моллюсков рода *Leucoszonella lindholm* в Узбекистане и сопредельных территорий. ГулГУ Вестник 2015/1. 24-27с.
18. Пазилов А.П., Махмуджонов З.М. Экологические особенности наземных моллюсков видов рода *Leucoszonella* Узбекистана и сопредельных территорий. Итоги и перспективы научных исследований. Краснодар 2015. 168-172.
19. Пазилов А. *Махмуджонов З., Гаиназарова Ф.* Эколо-географическая изменчивость морфологических признаков наземного моллюска *Leucoszonella mesoleuca*. Теория и практика актуальных исследований. Краснодар 2015. 190-196.
20. З.Махмуджонов, Х.Хакимов, Н.Мехмонова, Ш.Насриддина, Б.Чутанов. *Leucoszonella mesoleuca* нинг ички тузилиши ва ҳаёт цикли. НамДУ Илмий ахборотномаси. -2022/5. 262-2686